MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA KREDIT BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR 9
Javlanova Shaxnoza Djalolitdinovna
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AYOLLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 14
Babaraimova Gulmira Zakirovna
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 20
Fazliyev Farrux Faxriddinovich
TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 26
Jo‘rayev Eldor Berdibekovich
ELEKTROTEXNIKA SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIK IMKONIYATLARI 32
Bahodirov Jahongir Bahodir o‘g‘li
SANOAT KORXONALARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DARAJASINI BAHOLASH VA UNING MOLIYAVIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 37
Omanov Behzod, Hoshimjonov Ahrorjon
MINTAQAVIY INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY VA TARMOQ TARKIBINI BAHOLASH: DINAMIK TENDENSIYALAR VA NOMUTANOSIBLIKLAR 43
Qodirqulov Xumoyun Mirzo Voxid o‘g‘li
HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
ANALYSIS OF EXISTING MARKETING INSTRUMENTS FOR THE PROMOTION OF UNIVERSITY EDUCATIONAL SERVICES: STAGE REACH, THE COST-EFFICIENCY INVERSION, AND THE ABSORPTIVE CAPACITY CONSTRAINT 53
Shuhrat Bahodir o‘g‘li Umarov
WORKLOAD MANAGEMENT AS A MECHANISM FOR ENHANCING ACADEMIC STAFF PERFORMANCE IN HIGHER EDUCATION 65
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila
XIZMATLAR SEKTORIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 73
Tursunova Shahlo Sayfillayevna
SUN’IY INTELLEKT VA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGI 79
Madrahimova Onajon Javlon qizi
MINTAQAVIY INVESTITSIYALARNING KAMBAG‘ALLIKKA TA’SIRINI UZATISH MEXANIZMLARI 83
Nabiyev Olimjon Abdisalomovich
RAQAMLI IQTISODIYOT VA AUDIT 90
Yariyev Sherzod Shukurjanovich
GIDROENERGETIKA INVESTITSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI 94
Xusanov Shaxbozbek Shuxratjon o‘g‘li
KORXONALARDA RAQAMLI BOSHQARUV INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH DARAJASI TAHLILI . 100
Anvarova Lobarxon Sherzod qizi
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 108
Ochilov Shoxrux Ne’matulla o‘g‘li
IQTISODIY-DEMOGRAFIYANING MAZMUN-MOHIYATI VA UNI SHAKLLANISHI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY YONDASHUVLAR 115
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich

NATIJAGA ASOSLANGAN O‘RTA MUDDATLI BYUDJETLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, ZARURIY SHARTLARI VA INSTITUTSIONAL MODELLARI

Allakuliyev Akmal Baltayevich
PhD, professor v. b., Toshkent Kimyo xalqaro universiteti rektori,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-8570-5733
E-mail: a.allakuliyev@kiut.uz

Annotatsiya. Maqolada natijaga asoslangan o‘rta muddatli byudjetlashtirishning nazariy kelib chiqishi yangi davlat boshqaruvi konsepsiyasi doirasida ochib berilgan hamda ushbu tizimni joriy etishning zaruriy shartlari «birlamchi asoslar» tamoyili bo‘yicha olti pog‘onali iyerarxiya ko‘rinishida tizimlashtirilgan. Xorijiy amaliyotning qiyosiy tahlili asosida natijaga asoslangan byudjetlashtirishni huquqiy institutsionallashtirishning kodifikatsiyalashgan va strategiya-me’yoriy modellari ajratilgan, ularning afzalliklari va cheklovlari taqqoslangan. O‘tish iqtisodiyoti sharoiti uchun huquqiy-institutsional, metodologik, byudjet jarayoni hamda axborot-jamoatchilik bloklaridan iborat to‘rt blokli moslashtirilgan model va uni ikki avlodli bosqichlilik asosida joriy etish mantig‘i taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: natijaga asoslangan byudjetlashtirish, o‘rta muddatli byudjetlashtirish, yangi davlat boshqaruvi, dasturiy tasniflash, natija ko‘rsatkichlari, huquqiy institutsionallashtirish, byudjet islohoti, bosqichlilik.

Abstract. The article examines the theoretical origins of performance-based medium-term budgeting within the framework of the New Public Management concept and systematizes the prerequisites for its implementation into a six-level hierarchy based on the first-principles approach. Drawing on a comparative analysis of international practices, the study distinguishes between codified and strategy-based regulatory models for the legal institutionalization of performance-based budgeting and compares their advantages and limitations. For transition economies, the article proposes an adapted four-component model comprising legal-institutional, methodological, budgetary process, and information and public engagement components, along with a two-generation phased approach to its implementation.

Keywords: performance-based budgeting, medium-term budgeting, New Public Management, program classification, performance indicators, legal institutionalization, budget reform, phased implementation.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические истоки среднесрочного бюджетирования, ориентированного на результат, в рамках концепции нового государственного управления, а также систематизируются необходимые условия его внедрения в виде шестиуровневой иерархии на основе принципа первооснов. На основе сравнительного анализа зарубежной практики выделены кодифицированная и стратегически-нормативная модели правовой институционализации бюджетирования, ориентированного на результат, сопоставлены их преимущества и ограничения. Для условий переходной экономики предложена адаптированная четырёхблочная модель, включающая правовой-институциональный, методологический, бюджетно-процессный и информационно-общественный блоки, а также поэтапный подход к её внедрению, предусматривающий два поколения развития системы.

Ключевые слова: бюджетирование, ориентированное на результат, среднесрочное бюджетирование, новое государственное управление, программная классификация, показатели результативности, правовая институционализация, бюджетная реформа, поэтапное внедрение.

KIRISH

An’anaviy byudjet tizimi xarajatlarni muassasalar va sarf moddalari kesimida rejalashtiradi hamda ijroni mablag‘larning belgilangan yo‘nalishda sarflanganligi nuqtai nazaridan nazorat qiladi. Bunday yondashuv moliyaviy intizomni ta’minlashda samarali bo‘lsa-da, sarflangan mablag‘larning jamiyat uchun yaratgan natijalarini kompleks baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida o‘tgan asrning oxirgi choragidan boshlab dunyoning ko‘plab mamlakatlarida byudjet jarayonini natijaga yo‘naltirish islohotlari boshlandi.

Natijaga asoslangan byudjetlashtirish resurslarni taqsimlashda kutilayotgan va erishilgan natijalar to‘g‘risidagi axborotdan tizimli foydalanishni nazarda tutadi. Uning o‘rta muddatli byudjetlashtirish bilan uyg‘unlashuvi esa natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘p yillik resurs istiqbolini yaratadi, chunki aksariyat davlat dasturlarining samarasi bir moliya yili doirasiga sig‘maydi. Shu ma’noda natijaga asoslangan o‘rta muddatli byudjetlashtirish ikkita mustaqil islohotning oddiy yig‘indisi emas, balki yaxlit tizimdir.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba ushbu tizimni joriy etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlarni ham ko‘rsatadi. Zaruriy shart-sharoitlar yetarli darajada shakllanmagan holda boshlangan islohotlarda ayrim hollarda rasmiy tartib-taomillar ustuvorlik kasb etib, kutilgan natijalarga to‘liq erishish imkoniyatlari cheklangan. Shu bois tizimning nazariy asoslari bilan bir qatorda uning zaruriy shartlarini va joriy etishning institutsional shakllarini ilmiy tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi ana shu uch masalani, ya’ni nazariy asoslar, shartlar iyerarxiyasi va institutsional modellarni yagona mantiqiy tizimda yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Natijaga asoslangan byudjetlashtirishning nazariy ildizlari yangi davlat boshqaruvi (New Public Management, NPM) konsepsiyasiga borib taqaladi. K. Xud ushbu konsepsiyaning tayanch tamoyillarini umumlashtirib, davlat sektorida natijalar bo‘yicha javobgarlik, raqobat unsurlari va xususiy sektor boshqaruv usullaridan foydalanishni uning o‘zagiga qo‘ydi [7]. D. Osborn va T. Gebler davlat idoralari sarflanadigan resurslarni emas, natijalarni moliyalashtirishi lozimligi g‘oyasini keng jamoatchilikka olib chiqdi [9].

Islohotlarning amaliy tajribasini umumlashtirishda A. Shikning xizmati katta. U rivojlanayotgan mamlakatlar ilg‘or davlatlarning murakkab modellarini ko‘chirishdan avval byudjet tizimining asosiy funksiyalarini, ya’ni ishonchli hisob, nazorat va intizomni yo‘lga qo‘yishi lozimligini asoslab, ketma-ketlik tamoyilini islohotlar nazariyasining markaziga qo‘ydi [12]. J. Daymond dasturiy byudjetlashtirishdan natijaviy byudjetlashtirishga o‘tishning bosqichlarini tizimlashtirdi [6]. M. Robinson natijaviy byudjetlashtirishning modellarini, ya’ni taqdimot shaklidagi, qarorga ma’lumot beruvchi va bevosita bog‘lovchi shakllarni ajratib, har birining qo‘llanish shartlarini ko‘rsatdi [10].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari tajribasini umumlashtirgan tadqiqotlar natija axborotidan foydalanishning xilma-xil milliy shakllarini hujjatlashtirdi hamda yagona universal model mavjud emasligini ko‘rsatdi [8]. A. Shax tahriri ostidagi fundamental to‘plamda byudjet institutlarining islohotlar muvaffaqiyatidagi hal qiluvchi roli yoritildi [13]. Jahon bankining o‘rta muddatli xarajatlar dasturlariga bag‘ishlangan tadqiqoti ko‘p yillik rejalashtirishning turli darajalarini va ularning samaradorlik shartlarini katta empirik material asosida tahlil qildi [14]. S. Skyavo-Kampo esa davlat byudjetlashtirishi va xarajatlarni boshqarishning xalqaro amaliyotini tizimlashtirib, islohot vositalarini mamlakat sharoitiga moslashtirish zarurligini alohida ta’kidladi [11].

Huquqiy jihatdan institutsionallashtirish masalasida Fransiyaning moliya qonunlari to‘g‘risidagi organik qonuni asosidagi islohoti kodifikatsiyaning izchil namunalaridan biri sifatida o‘rganilgan [3], Janubiy Koreyaning milliy moliya to‘g‘risidagi qonuni esa o‘rta muddatli rejalashtirish va natijaviy boshqaruvni yagona hujjatda birlashtirgan [4]. Sobiq rejali iqtisodiyot mamlakatlari orasida Rossiya Federatsiyasining natijalarga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishni hukumat konsepsiyalari va quyi hujjatlar orqali joriy etish tajribasi M. Afanasev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan [5].

Shunday qilib, adabiyotlarda nazariy asoslar va mamlakat tajribalari keng yoritilgan, biroq zaruriy shartlarni yagona iyerarxiyaga keltirish hamda huquqiy institutsionallashtirish modellarini o‘tish iqtisodiyoti uchun moslashtirish masalalari qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-institutsional tahlil va «birlamchi asoslar» tamoyiliga tayanuvchi deduktiv yondashuv qo‘llanildi. Birlamchi asoslar tamoyilining mohiyati murakkab tizimni tayyor andozalardan emas, balki uning ishlashi uchun mantiqan zarur bo‘lgan eng sodda shartlardan boshlab qurishdan iborat. Ushbu tamoyil natijaga asoslangan o‘rta muddatli byudjetlashtirishga tatbiq etilganda quyidagi savol qo‘yiladi: tizim o‘z funksiyasini bajarishi uchun qanday shartlar boshqalaridan oldin mavjud bo‘lishi shart va ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Tahlil natijasida zaruriy shartlar olti pog‘onali iyerarxiya ko‘rinishida asoslandi. Birinchi pog‘ona – makrofiskal intizom. Barqaror makroiqtisodiy muhit va ishonchli yillik byudjet shakllanmagan sharoitda ko‘p yillik rejalarning iqtisodiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini ta’minlash murakkablashadi. Shu bois ushbu pog‘ona butun iyerarxiyaning asosini tashkil etadi [12]. Ikkinchi pog‘ona – o‘rta muddatli byudjetlashtirish, ya’ni ishonchli

makroprognoz asosida ko‘p yillik resurs doirasi va xarajat chegaralarining belgilanishi. Uchinchi pog‘ona – dasturiy tasniflash bo‘lib, u xarajatlarni muassasalar kesimidan maqsadlar kesimiga o‘tkazadi va natija axboroti uchun «manzil» yaratadi.

To‘rtinchi pog‘ona – natija ko‘rsatkichlari tizimi. Har bir dastur uchun mahsulot va yakuniy samara ko‘rsatkichlari belgilanib, ularning o‘lchanuvchanligi, ishonchliligi va sonining maqbulligi ta’minlanadi. Beshinchi pog‘ona – axborotdan foydalanish qoidalari, ya’ni to‘plangan natija axboroti byudjet qarorlariga qay tartibda ta’sir qilishini belgilovchi rasmiy protseduralar. Xalqaro tajribada ushbu pog‘onani amalga oshirishda muayyan murakkabliklar kuzatilgan, chunki to‘plangan natija axborotidan byudjet qarorlarini qabul qilish jarayonida foydalanish har doim ham yetarli darajada ta’minlanmagan [8]. Oltinchi pog‘ona – baholash va audit institutlari bo‘lib, ular natija axborotining haqqoniyligini mustaqil tasdiqlash va dasturlarni davriy chuqur baholash orqali butun tizimning ishonchliligini ta’minlaydi.

Pog‘onalarning o‘zaro joylashuvi 1-rasmda piramida ko‘rinishida tasvirlangan.



1-rasm. Natijaga asoslangan o‘rta muddatli byudjetlashtirish zaruriy shartlarining olti pog‘onali iyerarxiyasi[1]

Iyerarxiyaning to‘rtinchi pog‘onasi doirasida ko‘rsatkichlarga qo‘yiladigan sifat talablari alohida izohga muhtoj. Yaxshi tuzilgan ko‘rsatkich dastur maqsadiga bevosita bog‘liq, ishonchli va obyektiv ma’lumotlar asosida o‘lchanadigan, vaqt bo‘yicha taqqoslanadigan va ijrochi tomonidan sun’iy yaxshilab ko‘rsatilishi qiyin bo‘lishi lozim. Bunda mahsulot ko‘rsatkichlari, ya’ni ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan yakuniy samara ko‘rsatkichlari, ya’ni aholi turmushidagi haqiqiy o‘zgarishlar izchil farqlanadi, chunki birinchisi ijrochining bevosita nazoratida bo‘lsa, ikkinchisi tashqi omillarga ham bog‘liq. Hisobdorlikni asosan mahsulot ko‘rsatkichlari darajasida belgilash va yakuniy samara ko‘rsatkichlaridan siyosat tahlilida foydalanish tizimning adolatliligini ta’minlaydi.

Iyerarxiyaning metodologik ahamiyati shundaki, u islohotlar ketma-ketligini belgilaydi. Quyi pog‘ona yetarli darajada mustahkamlanmasdan yuqori pog‘onaga o‘tish tizimning amaliy samaradorligini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, pog‘onalar o‘rtasidagi bog‘liqlik qat’iy chiziqli emas: qo‘shni pog‘onalar ma’lum darajada parallel rivojlantirilishi mumkin, biroq umumiy yo‘nalish quyidan yuqoriga qarab boradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy amaliyotning qiyosiy tahlili natijaga asoslangan byudjetlashtirishni huquqiy institutsionallashtirishning ikkita asosiy modelini ajratish imkonini beradi.

Birinchisi – kodifikatsiyalashgan model bo‘lib, unda tizimning tayanch unsurlari, ya’ni dasturiy tuzilma, natija ko‘rsatkichlari, hisobdorlik va parlament nazorati yuqori yuridik kuchga ega qonun hujjatida, odatda byudjet to‘g‘risidagi organik qonunda mustahkamlanadi. Fransiya va Janubiy Koreya tajribasi ushbu modelning yorqin namunasidir [3; 4]. Modelning afzalligi islohotlarning huquqiy barqarorligini va belgilangan talablarning barcha ishtirokchilar uchun majburiyligini mustahkamlashida, cheklovi esa qonunga o‘zgartirish

1 Manba: muallif ishlanmasi.

kiritish tartibining murakkabligi tufayli tizimning moslashuvchanligi pasayishi mumkinligida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, kodifikatsiya islohotning nisbatan yetuk bosqichini talab qiladi, chunki yetarlicha sinovdan o‘tmagan yechimlarning qonun darajasida mustahkamlanishi ularni keyinchalik takomillashtirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Ikkinchisi – strategiya-me’yoriy model bo‘lib, unda islohotning umumiy yo‘nalishi hukumat strategiyasi yoki konsepsiyasi bilan belgilanadi, aniq mexanizmlar esa quyi darajadagi me’yoriy hujjatlar va uslubiy ko‘rsatmalar orqali joriy etiladi. Buyuk Britaniya, Niderlandiya va bir qator o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan Rossiya aynan shu yo‘ldan borgan [5; 8]. Modelning afzalligi tajriba-sinov va tezkor takomillashtirish uchun keng imkoniyat yaratishida, cheklovi esa institutsional ustuvorliklar o‘zgargan sharoitda islohotlarning izchilligini ta’minlashda muayyan murakkabliklar yuzaga kelishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Ikki modelning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval
Huquqiy institutsionallashtirish modellarining qiyosiy tavsifi[2]

Mezon	Kodifikatsiyalashgan model	Strategiya-me’yoriy model
Huquqiy asos	Organik qonun yoki kodeks	Hukumat strategiyasi va quyi hujjatlar
Namunalar	Fransiya, Janubiy Koreya	Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Rossiya
Afzalligi	Islohotning huquqiy barqarorligi va belgilangan talablarning majburiyligi	Egiluvchanlik va tajriba-sinov imkoniyati
Cheklovi	O‘zgartirish kiritishning murakkabligi	Institutsional ustuvorliklar o‘zgarganda islohotlar izchilligining pasayish ehtimoli
Mos bosqich	Islohotning yetuk bosqichi	Dastlabki va o‘tish bosqichlari

Ikki modelning taqqoslanishi ular o‘rtasidagi tanlov qat’iy muqobillik asosida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Islohotning dastlabki bosqichida strategiya-me’yoriy model maqbul, chunki u o‘rganish va moslashish imkonini beradi, tizim yetilgach esa sinalgan yechimlar kodifikatsiya orqali mustahkamlanadi. Byudjet munosabatlarining asoslari allaqachon kodeks darajasida tartibga solingan mamlakatlarda bu yo‘l natijaviy unsurlarni dastlab strategik hujjatlar va uslubiy ko‘rsatmalar orqali sinab, so‘ngra kodeksga izchil kiritib borishni anglatadi [1; 2].

Ushbu xulosa asosida o‘tish iqtisodiyoti sharoiti uchun to‘rt blokli moslashtirilgan model taklif etiladi. Model huquqiy-institutsional, metodologik, byudjet jarayoni hamda axborot-jamoatchilik bloklarini qamrab oladi, ularning har biri islohotning alohida jihati uchun javob beradi va faqat birgalikda yaxlit tizimni hosil qiladi.

Bloklarning tarkibi 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval
To‘rt blokli moslashtirilgan modelning tarkibi[3]

Blok	Asosiy mazmuni
Huquqiy-institutsional	Islohot strategiyasi, mas’ul institutlar vakolatlari, bosqichma-bosqich kodifikatsiya rejasi
Metodologik	Dasturiy tasniflash uslubiyati, natija ko‘rsatkichlarini belgilash va baholash qoidalari, xarajat chegaralarini hisoblash tartibi
Byudjet jarayoni	Natija axborotini byudjet taqvimining aniq bosqichlariga, ya’ni chegaralarni belgilash, loyihalarni ko‘rib chiqish, ijro monitoringi va hisobot bosqichlariga bog‘lash
Axborot-jamoatchilik	Natija axborotining oshkoraligi, fuqarolar byudjeti amaliyoti, jamoatchilik nazorati mexanizmlari

To‘rt blokning o‘zaro muvofiqlashtirilgan rivojlanishi ikki avlodli bosqichlilik asosida tashkil etiladi. Birinchi avlod bosqichida natija axboroti byudjet hujjatlariga taqdimot shaklida kiritiladi, dasturiy tuzilma va ko‘rsatkichlar tizimi sayqallanadi, kadrlar salohiyati shakllantiriladi. Ikkinchi avlod bosqichida natija axboroti resurs taqsimotiga ta’sir qiluvchi rasmiy omilga aylantiriladi, baholash natijalari bo‘yicha dasturlarni o‘zgartirish yoki tugatish mexanizmlari ishga tushiriladi va sinalgan yechimlar qonun darajasida mustahkamlanadi. Bunday bosqichlilik Robinson ajratgan modellar bo‘yicha taqdimot shaklidan qaror qabul qilishni axborot bilan ta’minlovchi shaklga izchil o‘tishni anglatadi [10].

2 Manba: [3–5; 8] asosida muallif tomonidan tuzilgan.
3 Manba: muallif ishlanmasi.

Modelni amalga oshirishda kadrlar salohiyati va rag‘batlantirish tizimi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Natija axborotini tayyorlash va tahlil qilish vazirliklarning moliya xizmatlaridan dasturlarni loyihalash, ko‘rsatkichlar bilan ishlash va baholash usullarini qo‘llash bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu bois har bir avlod bosqichi o‘zining o‘qitish dasturi bilan birga rejalashtiriladi. Rag‘batlantirish jihatidan esa natija axborotidan dastlabki bosqichda jazolash maqsadida emas, balki faoliyatni o‘rganish va takomillashtirish vositasi sifatida foydalanish muhim. Aks holda, ayrim ijrochilar tomonidan ko‘rsatkichlarni ataylab past belgilash yoki hisobot ma’lumotlarini sun’iy ravishda ijobiy ko‘rsatish xavfi yuzaga kelishi mumkin, bu esa tizimning axborot ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Taklif etilgan model Shik ogohlantirgan asosiy xatardan, ya’ni rasmiy tartib-taomillarning amaliy natijalardan ustun kelishidan himoya qiluvchi uchta ichki mexanizmni nazarda tutadi. Birinchisi – har bir bosqichga o‘tishdan avval olti pog‘onali iyerarxiyaning tegishli pog‘onalarining yetukligini tekshirish. Ikkinchisi – ko‘rsatkichlar sonini maqbul darajada cheklash, chunki ularning haddan tashqari ko‘payishi monitoring jarayonini murakkablashtirishi va hisobdorlik samaradorligini pasaytirishi mumkin. Uchinchisi – baholash va audit institutlarining mustaqilligini ta’minlash, chunki faqat ichki baholashga asoslangan tizimda natijalarni sun’iy ravishda o‘zgartirib ko‘rsatish xavfi yuzaga kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijaga asoslangan o‘rta muddatli byudjetlashtirish yangi davlat boshqaruvi g‘oyalarining byudjet sohasidagi muhim amaliy ifodalaridan biri bo‘lib, u resurslar haqidagi qarorlarni jamiyat uchun yaratiladigan natijalar bilan bog‘lashga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu tizimning samarali ishlashi zaruriy shart-sharoitlarning yetarli darajada shakllanganligiga bog‘liq. Maqolada asoslangan olti pog‘onali iyerarxiya, ya’ni makrofiskal intizomdan boshlanib baholash va audit institutlari bilan yakunlanadigan ketma-ketlik ana shu shartlarni tizimli tekshirish va islohotlarni to‘g‘ri tartibda amalga oshirish uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy institutsionallashtirishning kodifikatsiyalashgan va strategiya-me’yoriy modellari tahlili ularning har biri muayyan bosqichda afzallikka ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois o‘tish iqtisodiyoti uchun maqbul yo‘l dastlab egiluvchan strategiya-me’yoriy shaklda harakatlanib, yetuk yechimlarni bosqichma-bosqich qonun darajasiga ko‘tarishdir.

Taklif etilgan to‘rt blokli model huquqiy, metodologik, protseduraviy va jamoatchilik jihatlarini yagona tizimga birlashtiradi, ikki avlodli bosqichlilik esa islohotning sur’atini milliy salohiyatga moslashtiradi. Bunday yondashuv natijaga asoslangan byudjetlashtirishni rasmiy hujjatlar doirasidan amaliy boshqaruv jarayonlariga izchil tatbiq etish hamda davlat resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-2304138.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son «2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-7469803.
3. Loi organique n° 2001-692 du 1er août 2001 relative aux lois de finances (LOLF) // Journal officiel de la République française. – 2001. – 2 août. – N° 177. – URL: https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000000394028/.
4. National Finance Act of the Republic of Korea: Act No. 8050 of October 4, 2006 (as amended) // Korea Legislation Research Institute. – URL: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=40922&lang=ENG.
5. Афанасьев М. П., Беленчук А. А., Кривогов И. В. Бюджет и бюджетная система: учебник: в 2 т. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Юрайт, 2016. – Т. 1. – 363 с.; Т. 2. – 418 с.
6. Diamond J. From Program to Performance Budgeting: The Challenge for Emerging Market Economies // IMF Working Paper. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2003. – WP/03/169. – 28 p. – URL: https://doi.org/10.5089/9781451858365.001.
7. Hood C. A Public Management for All Seasons? // Public Administration. – 1991. – Vol. 69, No. 1. – P. 3–19. – URL: https://doi.org/10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x.
8. OECD. Performance Budgeting in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2007. – 222 p. – URL: https://doi.org/10.1787/9789264034051-en.
9. Osborne D., Gaebler T. Reinventing Government: How the Entrepreneurial Spirit Is Transforming the Public Sector. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1992. – 405 p.
10. Robinson M. (ed.). Performance Budgeting: Linking Funding and Results. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2007. – XXVIII, 520 p. – URL: https://doi.org/10.1057/9781137001528.
11. Schiavo-Campo S. Government Budgeting and Expenditure Management: Principles and International Practice. – New York: Routledge, 2017. – 416 p. – URL: https://www.routledge.com/Government-Budgeting-and-Expenditure-Management/Schiavo-Campo/p/book/9781138183414.

12. Schick A. Why Most Developing Countries Should Not Try New Zealand's Reforms // The World Bank Research Observer. – 1998. – Vol. 13, No. 1. – P. 123–131. – URL: https://doi.org/10.1093/wbro/13.1.123.
13. Shah A. (ed.). Budgeting and Budgetary Institutions. – Washington, D.C.: World Bank, 2007. – 584 p. – ISBN 978-0-8213-6939-5.
14. World Bank. Beyond the Annual Budget: Global Experience with Medium-Term Expenditure Frameworks. – Washington, D.C.: World Bank, 2013. – XV, 242 p. – URL: https://doi.org/10.1596/978-0-8213-9625-4.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100